ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVChILAR NUTQINI RETSEPTIV-REPRODUKTIV VA MAShQLAR ORQALI BOYITISh

Najimova Aysara Duysenbayevna – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
a.nazhimova@mail.ru
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ОБОГАЩЕНИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ РЕЦЕПТИВНО-РЕПРОДУКТИВНЫХ И ПРОДУКТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Нажимова Айсара Дуйсенбаевна – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

ENRICHING STUDENTS' SPEECH THROUGH RECEPTIVE-REPRODUCTIVE AND PRODUCTIVE EXERCISES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Najimova Aysara Duysenbayevna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: og‘zaki, yozma, monologik nutq, retseptiv-reproduktiv mashq, yangi so‘zlar, nutq madaniyati, grammatik vosita.

Rezyume. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda retseptiv-reproduktiv va mahsuldor mashqlarning o‘rni hamda ahamiyatiga bag‘ishlangan. Maqolada o‘quvchilar nutqini boyitish, lug‘at boyligini oshirish va mustaqil fikrlash layoqatini shakllantirishda ushbu mashqlarning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari tahlil qilingan. Retseptiv-reproduktiv mashqlar orqali matnni tushunish, undagi tayyor til birliklarini eslab qolish va qayta tiklash ko‘nikmalari ko‘rib chiqilsa, mahsuldor mashqlar yordamida o‘quvchilarning yangi, mustaqil va kreativ nutq mahsulini yaratish imkoniyatlari yoritilgan.

Ключевые слова: устная, письменная, монологическая речь, рецептивно-репродуктивное упражнение, новые слова, культура речи, грамматическое средство.

Резюме. Статья посвящена роли и значению рецептивно-репродуктивных и продуктивных упражнений в развитии речи учащихся начальных классов на уроках родного языка. В статье анализируются взаимосвязанные аспекты использования данных упражнений для обогащения речи учащихся, расширения их словарного запаса и формирования способности к самостоятельному мышлению. Посредством рецептивно-репродуктивных упражнений рассматриваются навыки понимания текста, запоминания и воспроизведения содержащихся в нём готовых языковых единиц, а с помощью продуктивных упражнений раскрываются возможности создания учащимися нового, самостоятельного и творческого речевого продукта.

Key words: oral, written, monologic speech, receptive-reproductive exercise, new words, speech culture, grammatical means

Summary. This article focuses on the role and significance of receptive-reproductive and productive exercises in developing the speech of primary school students during native language lessons. It analyzes the interconnectedness of these exercises in enriching students' speech, expanding their vocabulary, and developing their independent thinking skills. While the article examines skills such as text comprehension, as well as the memorization and reproduction of ready-made language units through receptive-reproductive exercises, it also highlights how productive exercises enable students to create new, independent, and creative speech products.

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodning nutqini o‘stirish, xususan, muloqot madaniyatini rivojlantirish, bolalarda ona tilining boy imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalana olish, tinglovchiga maqbul keladigan ohangda, ravon, ta’sirchan gapira bilish, adabiy til qonun-qoidalariga amal qilish, o‘zgalar nutqini to‘g‘ri tushunish malakasini hosil qilishning metodik muammolariga oid qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yetakchi olimlar, soha mutuxassislari, amaliyotchi-pedagoglar ona tili ta’limining amaliy jihatlarini kuchaytirish, yoshlar nutqini o‘stirish mazmunini boyitish, bu borada yanada samarador ish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish, tajribalar asosida takomillashtirib borish, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish masalalari ustida izlanmoqda.

Dunyo miqyosida jumladan, AQSH, Rossiya, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda olimlar tomonidan bolalar o‘rtasida ravon so‘zlay olish, suhbatni o‘rinli davom ettirish, muloqot jarayonida o‘z fikrlarini to‘g‘ri yetkaza olish, suhbatdoshini bosiq tinglay olish va to‘g‘ri tushunish, bunda o‘zlarini erkin va samimiy tutish hamda boshqa ko‘pgina fazilatlarni shakllantirish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish uchun xizmat qiladigan mashqlar tizimini yaratishga, retseptiv, reproduktiv hamda mahsuldor (ijodiy) mashqlarning oqilona nisbatini yuzaga keltirishga, bunda ona tili ta’limining amaliy jihatini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar, so‘zlarning yangi ma’no qirralari, nutqida ishlatilmaydigan grammatik vositalar bilan boyitish jarayoni nutqning miqdoriy va sifat o‘zgarishlarini ta’minlaydi, nutq o‘stirish chora-tadbirlari ayni shu jarayonda amalga oshiriladi. Ushbu tadbirlar orqali fikrni aniq, tushunarli, mazmunli ifodalash ko‘nikmalari ustida muntazam suratda ish olib boriladi. G.G.Nikitina bu xususda shunday yozadi: “Boshlang‘ich maktabga tadbiqan nutq o‘stirish deganda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma shakllarda to‘laqonli nutqiy muloqotga tayyorligini ta’minlovchi nutqiy malakalar yig‘indisini shakllantirish anglanadi” [1]. Bu malakalar nutq o‘stirish mazmuni doirasidagina belgilanishi mumkin: yangi so‘zlarni, so‘z shakllarini eslab qolib gaplar tarkibida ishlatish malakasi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lashda yangi tanishilgan bog‘lovchi vositalardan foydalanish malakasi, bog‘lanishli nutq malakasi va hokazo. Nutqning o‘sganlik darajasi ham shu kabi malakalarning shakllangan yoki shakllanmaganligiga qarab aniqlanadi.

Yu.V.Ganshinaning izohlashicha, nutqiy malaka – bu quyidagi parametrlar asosidagi operatsiyalar: “ongning ishtirok etmasligi, to‘liq avtomatiklik, til me’yorlariga moslik, me’yoriy sur’at (tezlik), bajarishning barqarorligi” [2].

Metodist olima D.N.Yuldashevaning quyidagi fikri masalaga oydinlik kirita oladi: “...ona tili mashg‘ulotlari faqat nutqni egallash yo‘llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalashi shart” [3].

“Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida nutq o‘stirish mazmuni xususida quyidagi aniq tavsiyani o‘qish mumkin: “Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bola nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi” [4].

“Ikkinchi sinfda ona tili darslari” metodik qo‘llanmasida mashqlar orqali beriladigan vazifalar haqida shunday deyiladi: ular “ko‘pqirrali bo‘lib, o‘quvchilarni akliy va nutqiy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, g‘oyaviy-siyosiy va axloqiy tarbiyalashga, elementar lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishga, ongli o‘qish va yozish malakalarini hamda darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi” [5].

Ba’zi metodik adabiyotlarda retseptiv-reproduktiv mashq turlari bilan mahsuldor mashq turlari nisbati 50 % ga 50 % deb olinmoqda. Lekin boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlangan metodik tavsiyalar – dars ishlanmalarida bir dars uchun 2-3 mashqdan mo‘ljallanmoqda [6]. Bunday vaziyatda uch mashqdan birini mahsuldor mashq sifatida ajratish imkoniyati mavjud. Demak, mahsuldor mashq turlari darsda bajariladigan mashqlarning uchdan bir qismiga yaqinini (darsning o‘rtacha 30% ga yaqinini) egallashi haqida gapirish, tadqiq etish o‘rinli bo‘ladi.

Natijalar. Nutq o‘stirishga qaratilgan mashqlar tizimida retseptiv mashqlarni kamaytirish, reproduktiv va mahsuldor mashqlarni ko‘paytirish, ular orasida oqilona nisbatni yuzaga keltirish, nutqning to‘g‘riligidan tashqari, ko‘proq uning boyligini ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqish oldimizda turgan vazifalar sirasiga kiradi. Agar har darsda bajariladigan uch-to‘rt mashqdan biri (jami mashqlarning 30 foizi) qisman reproduktiv, asosan mahsuldor bo‘lsa, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda muntazamlilik yuzaga keladi, samaradorlikka erishiladi.

Tabiiyki, reproduktiv va mahsuldor mashq turlarini ko‘paytirish uchun ayrim grammatik materiallarni o‘rganishga ajratiladigan vaqtni ixchamlashga to‘g‘ri keladi. Masalan, mashq tanish, yaxshi o‘zlashgan so‘z va sintaktik qurilmalar asosida tuzilgan bo‘lsa, bilimni mustahkamlash bilan cheklanish, nutq o‘stirish uchun qulay bir muhit yaratishga e’tiborni kuchaytirish mumkin. Bunda bolalarda aniq va tushunarli qilib gapirishga, o‘z fikrlarini savodli, tushunarli qilib bayon etishga intilish vujudga keltirilishi lozim. Maktabda ham nutq madaniyati uchun kurashdan iborat umumiy sog‘lom muhit hukmron bo‘lishi kerak.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, har bir darsdan 10–15 daqiqa vaqt ajratib, bir darsda berilgan so‘zlardan mustaqil ravishda (tarqoq so‘zlardan foydalanmagan holda) gap tuzish, bunda barcha darslar va dars bosqichlarida leksik va grammatik materiallarni faollashtirish choralarini ko‘rish, ikkinchi darsda matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan (ijodiy) qayta hikoya qilish, uchinchi darsda berilgan mavzuda hikoya qilish talab etiladigan mashq o‘tkazish mumkin. Ushbu mashqlarning bir-birini almashtirib kelishi foydali bo‘lib, bu narsa yaxshi samaralar beradi, muntazamlilikni ta’minlaydi.

Nutqiy mashqlar ko‘lamini shu turdagi mashq ustida olib boriladigan ishlar salmog‘i bilan o‘lchash mumkin. Masalan, kuzatishlarning ko‘rsatishicha, matnni o‘qib mazmunini qayta hikoya qilish talab etiladigan mashq uchun 10 daqiqadan tortib 15-20 daqiqagacha va bundan ko‘proq vaqt sarflanadi. Agar o‘qituvchi optimal vaqtni belgilash haqida o‘ylaydigan bo‘lsa, u yangi til hodisalarining dastlabki faollashib va nutqiy ko‘nikma asosida ularni qo‘llash malakasinining shakllanib ulgurganidan kelib chiqishi kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishga qaratilgan mashqlarni tashkil etishda ikki bosqich ajratilishi maqsadga muvofiq:

1) retseptiv va reproduktiv mashqlarni bajarish jarayonida (bir darsda yoki o‘tilgan darslarda) tanishilgan yangi so‘zlar va grammatik vositalarni umumlashtirib takrorlash yo‘li bilan o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga tayyorgarlik ko‘rish;

2) bor-yo‘qligiga qarab, darslar tarkibiga mahsuldor (ijodiy) mashqlarni joriy etish va o‘tkazish.

Retseptiv va reproduktiv mashqlar jarayonida ko‘rsatiladigan nutqiy faoliyat orqali yangi so‘zlar (yoki grammatik vositalar) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqida faollashtiriladi, ular mahsuldor (ijodiy) mashqlar avvalida qisqa tarzda takrorlanadi va umumlashtiriladi, nutq o‘stirish mavzusiga birlashtiriladi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar nutqini o‘stirishga tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Reproduktiv va mahsuldor nutqiy mashqlarni bajarishdan ko‘zlanadigan maqsadlarga ko‘ra, quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) so‘z va grammatik vositalarni nutqda faollashtirish (nutq o‘stirish mazmuni ustida ishlash) ko‘zda tutiladigan mashqlar;

2) gapirish tarzi (nutqning kommunikativ, nutq madaniyatiga xos jihati) ustida ishlash mo‘ljallanadigan mashqlar;

3) nutq madaniyati, jumladan, muloqot madaniyatini singdirish maqsadidagi mashqlar.

Nutq o‘stirish ta’minlangan taqdirdagina nutqiy mashqlar tizimi samarali hisoblanadi. Buning uchun deyarli har darsda nutq o‘stirish uchun qulay bir muhit yaratilishi, aniq va tushunarli qilib gapirishga intilish vujudga keltirilishi lozim. Doimiy ravishda beriladigan bunday e’tibor ana shu muhitdan dalolat berib turadi. Maktabda ham nutq madaniyati uchun kurashdan iborat umumiy sog‘lom muhit hukmron bo‘lishi kerak.

Grammatika va imloni o‘rganishga qaratilgan chora-tadbirlar dars vaqtini to‘liq egallab olmasligi darkor. Lekin ba’zan metodik adabiyotlardagi tavsiyalar shunga undaydi. Masalan, “4-sinfda ona tili darslari” metodik qo‘llanmasida berilgan maslahatlardan shunday holat kelib chiqishi mumkin: “Sinfda bajarishga mo‘ljallangan mashqlar ustida ishlab bo‘lingach, darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash va uy vazifasini tekshirish qismida o‘qituvchi qo‘shimcha ish turlaridan: kartochkalardan, turli ta’limiy o‘yinlardan, mustaqil ishlardan, ta’limiy diktantlar va testlardan foydalanishi mumkin. Mustahkamlashda sinf o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga alohida topshiriqlar berish darsga musobaqa tusini beradi, o‘quvchilarning darsga

boʻlgan qiziqishini oshiradi” [7]. Oʻqituvchi yangi mavzuga oid bilimlar oʻzlashmagan, dastlabki koʻnikmalar hosil boʻlmagan taqdirdagina shunday yoʻl tutishi oʻzini oqlashi mumkin. Lekin buning aksi boʻlsa, u nutq oʻstirish mashqlarini koʻpaytirish chorasini izlashi zarur. Zero, ushbu mashq turi jarayonida ham bilim, koʻnikma va malakalarni mustahkamlash ishlari nutqiy faoliyat bilan bogʻliq ravishda davom etishi shubhasizdir.

Muhokama. Darslikda boʻlmagan mashq turi va materiallarini oʻylab chiqish oʻqituvchi uchun birmuncha qoʻshimcha qiyinchilik tugʻdirishi mumkin.

Odatda, darsliklarda berilishiga koʻra, yangi soʻzlar dastlab quyidagi munosabatlar bilan nofaol tarzda tanishtiriladi:

– mashq materiali sifatida berilgan soʻzlar, soʻz birikmalari, gaplar, matnlar munosabati bilan;

– mashq shartlarida, unga doir topshiriqlarda koʻzda tutilgan ayrim lugʻat ishlari;

– illyustrativ materiallar munosabati bilan;

– soʻz yasalishini oʻrganish munosabati bilan;

– diktant va bayon matni ustidagi ishlar bois.

Oʻqituvchi ushbu soʻzlarning hammasini e’tiborga olishi lozim.

Oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish va faollashtirishga qaratilgan korreksion mashqlar lugʻat minimumi tuzish va joriy etish darajasida rejalashtirilishi lozim, lekin bunday minimum hamon ajratilmagan. Shuning uchun bu ishlar mashq materiallaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmogʻi lozim. Shuni ham unutmaslik zarurki, boshlangʻich sinflar uchun ona tilidan yaratilgan darsliklarda bir dars mobaynida oʻrganiladigan soʻzlar koʻpincha mavzu jihatdan tarqoq boʻladi. Masalan, 2-sinf “Ona tili” darsligida [8] koʻrsatilgan, shuningdek, oʻzimiz yangi deb topgan, kuzatilgan darslar orqali aniqlangan soʻzlashuvga xos yangi soʻzlarni mashqlar tartibida ajratib chiqaylik: 2-mashq. Davlat, qonun. 3-mashq. Doshqozon, kavlash-tirmoq. 7-mashq. Asal, qandim. 11-mashq. Adirlarida alvon, dovuchcha yeyish. 14-mashq. Mehmon, hurmat va boshqalar.

Darslik qolipida ish olib borib, unga ijodiy yondashadigan ilgʻor ish tajribali oʻqituvchi, avvalambor, lugʻat bilan bogʻliq tadbirlarni har bir dars materiali beradigan imkoniyatlar doirasida, soʻng oʻtilgan darslardagi mashqlar orqali tanishilgan soʻzlardan tanlab olish tarzida tashkil etadi. Bunda quyidagi yoʻllar tanlanadi:

1. Har bir dars materialida uchragan yangi (notanish) soʻzlar ma’nosini tushuntirish va mustahkamlash.

2. Yangi soʻzlarni qamrab olish mumkin boʻlgan mavzu tanlab, shu mavzuda nutq oʻstirish ishlarini uyushtirish.

3. Oʻtilgan darslarda oʻrganilgan yangi (notanish) soʻzlar asosida klaster tuzish, uyadosh soʻzlar roʻyxatlarini tuzish, turli didaktik oʻyinlar tashkil etish.

4. Shu soʻzlar doirasida sinonim, antonim, omonim soʻzlar ustida ishlash.

5. Ayrim soʻzlarning oʻz va koʻchma ma’nosini aniqlash.

6. Oʻtilgan soʻzlarning ayrimlari asosida soʻz birikmalari tuzish.

7. Rasmlar asosida savol va topshiriqlar.

8. Ogʻzaki hikoya qilish (yozma ravishda matn yaratish).

Metodik adabiyotlarda oʻquvchilarni yangi soʻzlar bilan tanishtirish, ularni mustahkamlash va dastlabki faollashtirish, turli oʻyinlar tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Bu ishlarda asosan retseptiv va reproduktiv mashqlar tavsiya etilgan. Ular oʻquvchilarni nutq oʻstirishga samarali tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi mashq turlarini tashkil etish avvalida yoki shu mashqlar jarayonida oʻquvchilardan mashq materialidagi qaysi soʻzlarning ma’nosini tushunmayotganliklari aniqlanishi, shunga qarab oʻrgatish ishlari olib borilishi zarur. Oʻquvchilar soʻz yasalishini, soʻz yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish munosabati bilan katta miqdordagi notanish soʻzlarga duch keladilar. Ularning ayrimlari darslikda izohlanadi, ayrimlari esa izohsiz keltiriladi. Oʻqituvchi ularni ham anglatish choralarini koʻradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari matnda uchragan yoki oʻzgalar nutqidan eshitgan iboralar, tasviriy ifodalar ma’nosini tushunadilar, lekin oʻz nutqlarida ularni kamdan kam ishlatadilar. Agar bolalarga tegishli topshiriq berilsa, ularda intilish paydo qilish mumkin. Nutqda ishlatish soʻralayotgan ibora yoki tasviriy ifoda soʻzlashuv nutqida faol leksik qatlamga taalluqli boʻlishi kerak.

Xullas, oʻquvchi oʻz nutqida ishlata olmaydigan soʻzlarni nofaol darajada oʻzlashtirishi lozim. Buning uchun oʻqituvchi darsga tayyorgarlik koʻrayotgan paytda ana shu soʻzlarni va ular ustida qanday ishlar olib borish kerakligini belgilab chiqishi va darsda ularga alohida e’tibor berishi lozim.

Adabiyotlar

1. Никитина Г.Г. Обучение младших школьников творческим работам на основе интеграции языковой и литературной подготовки. Составление рассказа по серии сюжетных картинок. // Начальная школа, 2007, № 5. – С. 55-57.

2. Ганьшина Ю.В. Формирование культуры речи младших школьников на литературном материале: Автореф. дисс. … канд.педнаук. – Рязань, 2007.

3. Yuldasheva D.N. Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: «Durdona», 2021.

4. Қосимова К., Матчонов С., Ғуломова Х., Йўлдошева Ш., Сариев Ш. Она тили ўқитиш методикаси: Бошланғич таълим методикаси факультети талабалари учун дарслик. – Тошкент: 2006.

5. Қосимова К., Убайдулаева Н. Иккинчи синфда она тили дарслари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1987.

6. Неусипова Н.М. Развитие речи младших школьников в условиях сельской малокомплектной школы: Книга для учителя. – Москва: «Просвещение», 1990.

7. Gʻulomova X. va boshq. 4-sinfda ona tili darslari: (Uslubiy qoʻllanma). Mual. X.Gʻulomova, Sh.Yoʻldosheva, U.Shermatova. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 2003.

8. Yuldasheva D.Sh.. Ona tili 1-sinf 1-qism. Umumiy oʻrta ta’lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: «Novda», 2023.